

Arab maqol-matallarida fe'l boblarining ishlatilishi

Diniqulov Abror Gulboy o'g'li

abrordiniqulov@gmail.com

Tayanch doktornat,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya Ushbu maqolada arab maqol-matallarida fe'l boblarining (vaznlarining) qo'llanish xususiyatlari lingvomadaniy va grammatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Arab tilidagi fe'llar boshqa tillardan farqli ravishda turli boblarga bo'linishi va bu boblarning ma'noga, stilistik yuklamaga hamda madaniy mazmunga ta'siri ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda deskriptiv, qiyosiy-chog'ishtirma, semantik va sintez metodlari uyg'un qo'llanib, maqollarda uchraydigan fe'llarning shakli, mazmuni va vazifasi o'rganilgan. Tomas Erpenius va Reyt kabi yevropalik arabshunoslarning fikrlari tarixiy manba sifatida tahlil qilinib, ularning boblar haqidagi qarashlari zamonaviy maqol materiallari bilan taqqoslangan. Natijada I, II, III, IV, VI, V, VII, VIII va X bob fe'llari maqollarda faol ishlatilishi aniqlangan bo'lsa-da, *افعل* va *افعال* boblari deyarli uchramasligi qayd etilgan. Shuningdek, uch o'zakli va to'rt o'zakli fe'llarning imkoniyatlari farqlantirilgan. Majhul nisbatning inson o'zligi, taqdirga bo'ysunish va natijaga urg'u beruvchi madaniy ma'no yaratishi alohida e'tirof etiladi. Tadqiqot arab tilini o'rganishda fe'l boblarining nafaqat grammatik, balki semantik va madaniy ahamiyatini ham ochib beradi. Fe'l boblarini to'g'ri ishlatish muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar Maqol, matal, fe'l, fe'l boblari, Tomas Erpenius, V. Rayt, uch o'zakli fe'llar, to'rt o'zakli fe'llar, ma'lum nisbat, majhul nisbat

Использование глагольных пород в арабских пословицах и поговорках

Диникулов Аброр Гульбой угли

abrordiniqulov@gmail.com

Соискатель (докторант PhD),

Ташкентский государственный университет
востоковедения

Аннотация В данной статье анализируются особенности употребления глагольных бобов (весов) в арабских пословицах с лингвокультурной и грамматической точек зрения. В отличие от других языков, арабские глаголы делятся на различные бобы, и их влияние на значение, стилистическую нагрузку и культурный смысл раскрывается научно. В исследовании комплексно применяются дескриптивный, сравнительно-сопоставительный, семантический и синтетический методы, с помощью которых изучены форма, содержание и функция глаголов, встречающихся в пословицах. Мнения европейских арабистов, таких как Томас Эрпениус и Райт, анализируются как исторические источники и сопоставляются с современным пословичным материалом. В результате установлено, что глаголы I, II, III, IV, VI, V, VII, VIII и X бобов активно используются в пословицах, тогда как бобы *افعل* и *افعال* почти не встречаются. Кроме того, различаются возможности трёхкорневых и четырёхкорневых глаголов. Особо отмечается, что страдательный залог создаёт культурное значение,

подчеркивающее человеческую слабость, покорность судьбе и акцент на результате. Исследование показывает, что глагольные бобы в арабском языке важны не только грамматически, но и семантически и культурно, а также подчёркивает необходимость их правильного употребления.

Ключевые слова Пословица, поговорка, глагол, формы глагола (породы глагола), Томас Эрпениус, В. Райт, трёхкорневые глаголы, четырёхкорневые глаголы, действительный залог, страдательный залог

The usage of verb patterns in Arabic proverbs and sayings

Diniqulov Abror Gulboy og'li

abrordiniqulov@gmail.com

PhD Candidate (Junior Researcher),

Tashkent State University of Oriental Studies

Annotation *This article analyzes the use of Arabic verb patterns (verb "bāb") in proverbs from linguistic-cultural and grammatical perspectives. Unlike other languages, Arabic verbs are divided into various patterns, and the influence of these patterns on meaning, stylistic function, and cultural content is demonstrated scientifically. A combination of descriptive, comparative, semantic, and synthesis methods is used to examine the form, meaning, and function of verbs found in proverbs. The views of European Arabists such as Thomas Erpenius and Wright are studied as historical sources and compared with modern proverb data. As a result, it is identified that forms of the I, II, III, IV, VI, V, VII, VIII, and X verb patterns are actively used in proverbs, while the patterns افعل and افعل are almost absent. Additionally, the capabilities of trilateral and quadrilateral verbs are differentiated. The passive voice is noted for creating cultural meanings that emphasize human weakness, submission to fate, and focus on results. The study reveals that verb patterns in Arabic are important not only grammatically but also semantically and culturally. It also highlights the importance of using verb patterns correctly.*

Keywords *Proverb, saying, verb, verb forms (patterns), Thomas Erpenius, W. Wright, trilateral verbs, quadrilateral verbs, active voice, passive voice*

Kirish

Arab tilida fe'llar boshqa ko'plab tillardan farq qilgan holda maxsus vazn va boblarga bo'linadi. Har bir fe'lning qaysi bobga mansubligi uning sintaktik vazifasi, semantik xususiyati va ma'no soyalarini belgilab beradi. Shu sababli bir xil ildizdan yasalgan fe'llar turli boblarda turlicha ma'noni anglatishi, ba'zida esa zid ma'no hosil qilishi mumkin. Bu holat o'zbek tilidagi fe'l nisbatlari bilan qisman qiyos qilish imkonini bersa-da, aslida bob va nisbat

tushunchalari to'liq mos tushmaydi. Chunki o'zbek tilidagi nisbatlar ko'proq fe'lning ichki grammatik ma'nosini bildirsa, arab tilidagi boblar esa ma'no va shakl o'rtasidagi chuqur morfologik munosabatni ifodalaydi.

Aynan mana shu fe'l boblarining arab maqol va matallarida qanday funksional yuklama bilan qo'llanilishi alohida ilmiy e'tibor talab qiladigan masalalardan biridir. Chunki maqol va matallar – xalq tafakkurining mahsuli bo'lib, unda tilning eng tabiiy, eng qadimiy va

eng obrazli shakllari saqlanib qolgan bo'ladi. Shunga qaramay, arab maqol-matallarini o'rganishda ko'pincha ism, sifat yoki iboralarning uslubi tahlil qilingan, lekin fe'llarning o'rni, boblar orqali ma'no kuchayishi yoki o'zgarishi yetarlicha tadqiq qilinmagan. Natijada fe'llar maqol matnida qanday pragmatik vazifani bajarishi, qanday morfologik vositalar bilan obrazlilik hosil qilishi ko'p hollarda ochiq qolgan.

Ayni shu ilmiy bo'shliq bizning izlanishimiz uchun zarurat va turtki bo'lib xizmat qildi. Chunki agar maqollardagi fe'llar chuqur tahlil qilinsa, biz arab xalqining dunyoqarashi, harakat va holatlarni ifodalash uslubi, madaniy qadriyatlari haqida yanada teranroq xulosalar chiqarishimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, fe'l boblarining qo'llanish chastotasi, qaysi boblar kuchli ma'no, qaysilari keskin ohang yoki kinoya ifodalashi ham maqollar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bu mavzu nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki tarjima, ta'lim va leksikografiya uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Demak, ushbu maqolaning yuzaga kelishi tabiiy ehtiyoj bo'lib, u arab tilidagi fe'l boblari va maqol-matallar orasidagi chuqur ichki bog'liqlikni yoritishga qaratilgan.

Metodlar

Ushbu tadqiqotda arab maqol-matallarida uchraydigan fe'l boblarini o'rganish maqsadida bir nechta ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, deskriptiv metod yordamida maqollarda uchraydigan fe'llar yig'ilib, ularning morfologik shakllari, bobga oid xususiyatlari va grammatik qurilishi tavsiflab chiqildi. Shundan so'ng qiyosiy-chog'ishtirma metod asosida turli maqollarda bir bobga mansub fe'llarning qo'llanish usuli, mazmuniy farqlari va stilistik yuklamalari solishtirildi. Bu metod fe'l boblarining maqollarda turlicha maqsadlar bilan qo'llanayotganini aniqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, fe'llarning ma'lum va majhul nisbatlarda kelishi semantik o'zgarishlarga sabab bo'lishi kuzatilib, semantik tahlil metodidan ham foydalanildi.

Olingan ma'lumotlar asosida sintez metodi orqali fe'l boblarining maqol-matallarda qo'llanishiga doir umumiy qonuniyatlar va tipik modellari umumlashtirildi. Bu esa har bir bobning nafaqat grammatik funksiyasini, balki ma'naviy-ma'rifiy mazmunga qanday ta'sir ko'rsatishini ochib berishga imkon yaratdi. Mazkur metodlarning uyg'un qo'llanilishi tadqiqot natijalarini yanada ishonchli va ilmiy asosli holga keltirdi.

Natijalar

Yevropa ilmida arab tilini o'rganish Tomas Erpenius tomonidan XVII asrdan boshlab rivojlangan. U o'zining "Grammatica Arabica" kitobida arab tili va arab madaniyati, she'riyatini tadqiq qilgan. Arab an'anaviy nahvchilari va Yevropa arabshunoslari asarlaridagi asosiy bayon qilish usullaridan biri shuki, arab nahvchilari kalimaning ta'rifi bilan boshlaydi, yevropalik olimlar esa harflar imlosi bilan boshlaydi. Bunga sabab sifatida Indoneziyaning Ahmad Dahlan universiteti doktori Yoyo yevropalik olimlar asarlarini yevropaliklar uchun yozishgan, ular arab harf va belgilarini bilishmaydi, shuning uchun ularga avvalo arab harflari va harflar imlosini tanitish dastlabki va fundamental bilim bo'lgan, deb o'z maqolasida keltirib o'tgan (Erpenius, 1613).

Tomas Erpenius fikricha shakllar signifikatsiyaning faol yoki passiv shaklini o'z ichiga oladi. قَعَلَ paradigmasining qolipi asosida uchdan o'n uchtagacha shakllar hosil qilinadi. Bunda har biriga belgi va ma'no beriladi.

Tomas Erpenius fe'llarni bo'lib bergan boblar keyingi Yevropa arabshunoslari uchun dasturulamal sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Birinchi bob fe'llari haqida Reytning arab tili grammatikasi kitobida arab tilidagi uch o'zakli fe'llarning ayn barobaridagi harakati bilan ham bir-biridan farqlanishi keltirib o'tilgan.

Masalan, ayn barobari fatha (a) bo'lsa ko'p hollarda bu fe'l o'timli bo'ladi (ضرب، قتل). (الله يستر على الضأن بأذنابها) كتب (Alloh qo'ylarni dumlari bilan berkitdi).

Agar o'tgan zamon shaklining ayn barobari kasra (i) bo'lsa odatda o'timsiz fe'l bo'ladi, o'tgan zamon shaklida ayn barobari damma bo'lsa, doimo o'timsiz fe'l bo'ladi. Masalan, جَدَلَ yoki فَرَح – xursand bo'lmoq, quvnamoq, صَغُر – kichkina bo'lmoq (Erpenius, 1613).

Ammo ما يشرب بكفوفه من يدين الرجال هماج (Kim o'z kaftidan ichmasa, boshqaning qo'lidan sho'r suv ichadi). Bu maqolda ishlatilgan شَرِب fe'li o'tgan zamon shaklida ayn barobari kasra bo'lsa ham o'timli fe'l bo'lib kelmoqda. Shuning uchun bundan fe'llarni ishlatishda diqqatli bo'lish talab qilinadi.

Arab maqol-matallarida فَعَلَ bobi tez-tez ishlatilib turiladi. Masalan: بَارَكَ اللَّهُ فِيمَنْ زَارَ وَ حَقَّفَ (Ziyorat qilgan va oz o'tirganga Allohning barakasi bo'lsin). Bundan tashqari otning ma'nosini yuzaga keltirish ma'nosi (حَدِير chodir tikmoq خِيْمَة chodir) so'zidan olinganini bayon qilib o'tgan bo'lsada, ikkinchi fe'l asosidagi rangga kirish ma'nosini keltirib o'tmagan. Arab tilida يَبِضُّ yoki سَوَّدَ fe'llar ham mavjud bo'lib, ular "oqartirmoq, oqqa bo'yamoq; qoraytirmoq, qoraga bo'yamoq" degan ma'nolarida ishlatiladi. Masalan: بَيَضَ اللَّهُ سَوْدَ اللَّهِ (Alloh (yuzini) oq qildi, Alloh (yuzini) qora qildi). Ammo يَبِضُّ fe'li "tuxum qo'ymoq" ma'nosida ham arab maqol-matallarida uchrab turadi. السَّبِضُ الصَّغُر (Bigiztumshuq tuxum qo'ysa)

Uchinchi bob فاعل esa birga bajarilgan harakatni olib borgan shaxslarga nisbatan harakatni anglatadi. إلى صار خصيمك القاضي من تقاضي (Agar raqibing qozi bo'lsa, kimni sudga berasan).

Yana فَعَلَ vazni anglatgan ma'noni ifodalaydi. (Dedi, – قال من شاهدك يا با الحصين قال ذنبي. ey tulki, kim seni ko'rди, dedi – dumim).

Bundan tashqari fe'l III bobga o'tganda I bob ma'nosiga qarama-qarshi ma'noni ifodalash holati ham kuzatilib turadi. Ammo bu ma'nosi biz tahlil qilayotgan mualliflarning kitobida berilmagan. Masalan, كَوِيَ "kasal bo'lmoq" bo'lsa, دَاوَى "davolamoq, tuzatmoq, parvarishlamoq" ma'nolarini ifoda etadi. Masalan: طَبِيبٌ يَدَاوِي النَّاسَ وَ هُوَ مَرِيضٌ (Tabib o'zi kasal bo'la turib odamlarni davolaydi).

Boshqa bir holatda فاعل vazni bilan فاعل vazni ma'no jihatidan o'zgarishga uchramaganini ham ko'rish mumkin. Masalan, رَاعَى "kuzatmoq, rioya qilmoq" fe'li رَاعَى shakliga o'zgarganda ham "rioya qilmoq, asramoq" singari ma'nolarni saqlab qolgan. رَاعَى التَّمْنَى مَثَل (Tomga (dehqonchilik qiladigan) dehqon singari umidim saqlanib qolgan). Bundan tashqari III bob fe'llarini kuzatish orqali uning I bob ma'nosidan farqli ma'noga o'tib ketish holatlarini ham ko'rish mumkin. Masalan: رَافَقَ الْوُزَرَ وَ عَادَ السَّلَاطِينَ (Vazirlarga hamroh bo'ldi, sultonlar bilan qaytdi). رَافَقَ fe'li "hamroh bo'lmoq, do'stlashmoq" ma'nosini ifoda etmoqda. I bobda رَفَقَ fe'li "yordam bermoq, foyda keltirmoq; yumshoq muomala qilmoq" ma'nolarini ifodalaydi.

IV bob fe'llari esa أَفْعَلَ vaznida yasalib, I bobdagi o'timsiz fe'lni o'timliga, o'timli fe'lni esa o'ta o'timliga aylantiradi. أَكْرَمَ رَجُلٌ تَرِيدَ قَتْلَهُ (O'ldirmoqchi bo'lgan odamingni ikrom qil).

Oltinchi فاعل vazni o'zaro harakat va hamkorlikni ifoda etadi. إلى صار خصيمك القاضي من تقاضي (Agar raqibing qozi bo'lsa, kimni sudga berasan).

Beshinchi (تَفَعَّلَ), yettinchi (انفَعَلَ), sakkizinchi (اِفْتَعَلَ) boblari yana o'zlikka qaytaradi. Ushbu vazn fe'llari arab maqol-matallarida ham qo'llanilishi kuzatiladi. إِذَا عَزَمْتَ (Agar azm qilsang, Allohga tavakkal qil). أَجَارَتِ الْمَشَاطِطُ فِي رَأْسِ الْقُرْعَى (Sahiylar eshak go'nggi singari parchalanadilar. الحرج قرب الفرج (Qiyinchilik kuchaysa, yengillik yaqinlashadi).

To'qqizinchi فاعل va o'n birinchi bob اَفْعَالَ ranglarni kuchaytirishi bilan ajralib turadi. Masalan, اصْغَرَ "sariq bo'lmoq, sarg'aymoq" – اصْغَرَ juda sariq bo'lmoq, yoki deformatsiya holati bo'ladi. Ammo bu bobdagi fe'llarni maqol-matallar tarkibida uchratmadik.

O'ninchi bob اِسْتَفْعَلَ iltimosni ifodalaydi. Qorni dam bo'lgan dam olmas). اللّٰي فِي بَطْنِهِ رِيحٌ مَا يَسْتَرِيحُ (Agar chalkashib ketsang ham, sen zafarni maqsad

qil). Bu bobga oid fe'llarning maqol-matallarda kelishi ham juda kamyob holatlardan sanaladi.

To'rt o'zakli fe'llar borasida esa hozirgi kundagi boblar bilan bir xillik kuzatiladi. Bular: فَعَّلَ، تَفَعَّلَ، اِفْعَلَّ، اِفْعَلَّلَ. Bu boblar ishtirok etgan maqollardan ba'zilarini keltirib o'tamiz. أَحَدٌ يَشْعَبُ وَاحِدٌ يَطْنَقُرُ (Kimdir tezlatay desa, kimdir sekinlatadi).

Arab maqol-matallarida fe'llarning qanday kelishiga qarab ham ligvomadaniy yuklama yuklanadi va semantik jihatdan o'zgarish hosil qiladi. Boshqa xalqlarda bo'lganidek, asosan, ma'lum nisbatda fe'l ishlatilsa-da, majhul nisbatda ishlatilgan fe'li maqol-matallar ham kam emas. Majhul nisbat orqali arab madaniyatida, arab tilidagi fe'llar semantikasida insonning o'jizligi, taqdirga bo'ysunish, vazifalarning yuklanishi, taqdir, zamon, kuch singari mavhum tushunchalarga urg'u berish old o'ringa chiqadi. مَنْ عَوْفِي فَلْيَحْمَدِ اللَّهَ (Kim sog'aysa, Allohga

hamd aytsin), السَّعِيدُ مَنْ وَعِظَ بَغِيرِهِ (Boshqalar bilan unga vaz qilingan odam baxtlidir). Ushbu maqollarda birinchisida insonning sog'ayish o'z qo'lida emasligi, Allohga bog'liqligi, ikkinchi maqolda esa ba'zida harakat bajaruvchisi muhim bo'lmasdan natija-oqibat muhim bo'lsa ham, majhul nisbat ishlatilishi ko'ringan.

Xulosa

Yuqoridagi natijalardan ko'rinib turibdiki arab maqol-matallarida uch o'zakli fe'llarning اِفْعَلَّ va اِفْعَلَّلَ boblaridagi fe'llar uchramaydi. To'rt o'zakli fe'llarning esa اِفْعَلَّلَ dan boshqasini uchratish juda qiyin. Majhul nisbat esa inson irodasi va xohishidan tashqarida sodir bo'ladigan yoki bajaruvchi emas, natija-oqibat muhim bo'lganda ishlatiladigan shakl hisoblanadi.

Shuning uchun arab tilini o'rganishda fe'llarning boblarini ishlatishda hushyor bo'lish har bir o'rganuvchi uchun muhim sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Dusuqi, I. (2008). *The semantic field of the verb and the meaning of the preposition associated with it*. Cairo: Dar Al-Ghareeb. (in Arabic)
2. Al-Juhayyimān, 'A. al-K. (1983). *Al-amthāl al-sha'biyya fī qalb Jazīrat al-'Arab* (Vol. 6, 3rd ed.). Riyadh: Dār Ashbāl al-'Arab. (Original work published 1403 AH) (in Arabic)
3. Krikman, A. (2009). *Proverb semantics: Studies in structure, logic and metaphor*. Proverbium. (in English)
4. Nazarova, S. (2025). The national uniqueness of proverbs and sayings. *Modern Education and Development*, 28(6), 314–319. Tashkent University of Applied Sciences. (in English)
5. Sulaymonova, M. (2021). The verb as a part of speech and its lexical-semantic classification. *Oriental Art and Culture: Scientific-Methodical Journal*, 187–191. (in Uzbek)
6. Erpenius, T. (1613). *Grammatica Arabica*. (in Latin)
7. Uralova, T. Sh. (2022). Expression of verbs of emotional relation in English lingvoculturology. *International Journal of Pedagogics*, 2(4), 8–10. Nurafshon. (in English)
8. Wais, A. H. (2022). *The conditional style in Arabic proverbs: A syntactic and semantic study* (Master's thesis). Syria. (in Arabic)